



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI HUZURIDAGI
STATISTIKA AGENTLIGI**

2024- yil “30” aprel

BUYRUQ № 81

Toshkent sh.

**Eksport va import narxlari indeksini hisoblash bo‘yicha uslubiy nizomni
tasdiqlash to‘g‘risida**

O‘zbekiston Respublikasining “Rasmiy statistika to‘g‘risida”gi Qonuni hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024- yil 4- martidagi “O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-114-son qarori ijrosini ta’minlash, shuningdek, ishlab chiqaruvchilar narxlari statistikasi sohasini yanada takomillashtirish, sohaga sifatni boshqarishning xalqaro modellarini joriy qilish maqsadida, **buyuraman:**

1. “Eksport va import narxlari indeksini hisoblash bo‘yicha uslubiy nizom” ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasining 2021- yil 23- noyabrdagi “Eksport va import narxlari indeksini hisoblash bo‘yicha uslubiy nizomni tasdiqlash to‘g‘risida” 47- sonli qarori o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

3. Mazkur buyruq tasdiqlangan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

Direktor

B. Begalov